

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV BOSQICHIDA O‘TKAZILADIGAN TERGOV HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

Ibadullayev Islom Boboxon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
“Tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha magistratura tinglovchisi.

E-mail: islom.ibadullayev@gmail.com

Tel: +99893 038-75-57.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11076629>

Annotatsiya. Hozirgi kunda iqtisodiy sohada ham, ijtimoiy sohada ham rivojlanib borayotgan davlatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ham talaygina yutuqlar mavjud. Mazkur maqolada esa yutuqlar bilan bir qatorda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida tergovga qadar tekshiruv bosqichida uchrayotgan kamchiliklar haqida ham so‘z boradi, shu qatorda tergovga qadar tekshiruv bosqichini takomillashtirishga oid fikrlar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: ishni sudga qadar yuritish, jinoyat ishi qo‘zg‘atish, jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, tergovga qadar tekshiruv muddatini uzaytirish.

IMPROVEMENT OF INVESTIGATIVE ACTIONS CARRIED OUT AT THE PRE-INVESTIGATION STAGE.

Abstract. Currently, in our country, which is developing both in the economic sphere and in the social sphere, there are many achievements in the fight against crime. In addition to the achievements, this article also talks about the shortcomings encountered in the pre-investigation stage in the fight against crime, as well as suggestions for improving the pre-investigation stage.

Key words: take the case to court, prosecute a criminal case, refuse to prosecute a criminal case, pre-investigation inspection, inquest, preliminary investigation, extension of time of pre-investigation inspection.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЙ, ПРОВОДИМЫХ НА СТАДИИ ДОЗНАНИЯ.

Аннотация. В настоящее время в нашей стране, развивающейся как в экономической, так и в социальной сфере, имеется немало достижений в борьбе с преступностью. Помимо достижений, в данной статье также говорится о недостатках, встречающихся на доследственной проверке в борьбе с преступностью, а также предложения по совершенствованию доследственной проверке.

Ключевые слова: досудебное производство, возбуждение уголовного дела, отказаться в возбуждение уголовного дела, доследственная проверка, дознания, предварительное следствие, продление срока доследственной проверки.

Mustaqillik yillaridan boshlab hozirgi kunga qadar jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida va huquq-tartibot idoralarining faoliyatini takomillashtirish sohasida islohotlarni amalga oshirish ishlari izchil va davomli tarzda olib borilmoqda.

Bunga yaqqol misol tariqasida 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan Konstitutsiyani va undagi yuridik sohani tartibga solgan bir qancha normalarni keltirishimiz mumkin. Xususan, jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida aniq va qat‘iy norma hisoblangan 24-modda

dispozitsiyasi eng og‘ir jinoyat hisoblanmish qasddan odam o‘ldirish jinoyatiga qarshi kurashishda milliy qonunchilikdagi rahbariy norma hisoblangan. 25-moddada esa hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi belgilangan bo‘lib, shaxsning shaxsiy huquq va erkinliklarini muhofaza etishda yetakchi rolni o‘ynagan. 26-moddada belgilangan aybuzlik prezumpsiyasi to‘g‘risidagi norma esa 1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasiga poydevor yaratib bergan, desak xato bo‘lmaydi.

Mazkur Konstitutsiya qabul qilinganidan so‘ng bir necha o‘n yillar o‘tib, dunyo davlatlarining huquqiy imidji shakllanib, rivojlanib borgani sari, bizning mamlakatimiz huquqiy bazasi ham, xususan, Konstitutsiyamiz ham tubdan isloh qilinishiga zarurat vujudga keldi. Shu sababli, 2022-yil may oyidan boshlab siyosatshunos, Oliy Majlis deputati Akmal Saidov raisligidagi Konstitutsiyaviy komissiya ish olib bordi va 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida Konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilindi va o‘sha yili 1 may kundan kuchga kirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya ilgari umumiylik xarakteridan voz kechib, xususiylik xarakterini o‘zida mujassam etdi hamda mazkur yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasi ikkinchi qismida ham bu haqida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi” deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Yuqorida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning xususiylik xarakteri haqida aytib o‘tgan edik, bunga misol tariqasida 27-moddaning uchinchi qismida shaxsning erkinligini cheklash tartibi va muddatlari uzil-kesil hal qilingan, ya‘ni unda “Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas” deb belgilangan. 30-moddada esa rasmiy e‘lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinib, jazoga tortilishi mumkin emasligi belgilangan.

Eski va yangi tahrirdagi Konstitutsiyalarimizning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan normalaridan tashqari, bevosita tadqiqotimiz obyekti bo‘lmish tergovga qadar tekshiruv sohasini tartibga soluvchi qonunchilikdagi yutuqlarimizni aytib o‘tadigan bo‘lsak, 2017-yil 6-sentabr kuni “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan. Asosiy qo‘shimchalardan biri shuki, jinoyat qonunchiligiga “tergovga qadar tekshiruv” deb nomlanuvchi yangi institut kiritildi. Mazkur institut jinoiy-huquqiy ishlarni sudga qadar yuritish bosqichida alohida, mustaqil boschiq sifatida shakllantirildi. Bunga qadar mazkur bosqich surishtiruv deb nomlangan bo‘lib, uni o‘rnini tergovga qadar tekshiruv bosqichi egallaganidan so‘ng, surishtiruv bosqichi jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan keyin uni tergov qilishning ikkita shaklidan biri sifatida e‘tirof etildi. Jinoyat ishlari sodir etilgan jinoyatning tasnifiga ko‘ra, surishtiruv va dastlabki tergov shaklida tergov qilinadi.

Biz esa quyida ishlarni sudga qadar yuritish shakllaridan dastlabkisi bo‘lmish tergovga qadar tekshiruv bosqichi haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Avvalo, tergovga qadar tekshiruv haqidagi tushunchani oydinlashtirib oladigan bo'lsak, tergovga qadar tekshiruv, deb jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinganidan to jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi yoki jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqidagi qaror qabul qilinguniga qadar bo'lgan jarayonga aytiladi.

Bu jarayon talab qiladigan **muddatlar** quyidagicha, jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi yoki jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqidagi qarorlardan biri qabul qilinishi darhol yoki ba'zi hollarda jinoyat ishi qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini tekshirish uchun vaqt talab qilinsa o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. O'zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasi 3-qismiga ko'ra, to'rtta holatda:

- o'tkazish uchun ko'p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, taftish yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo'lsa;
- olis joylarda bo'lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo'lishdan bo'yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar olish lozim bo'lgan hollarda;
- yangi holatlar aniqlanib, ularni tekshirmasdan turib qonuniy qaror qabul qilishning imkoni bo'lmasa;
- yetkazilgan moddiy zararining o'rnini ixtiyoriy ravishda qoplash va (yoki) jinoyat oqibatlarini bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi JKning Maxsus qismi tegishli moddasida belgilangan muddat o'tmagan bo'lsa tergovga qadar tekshiruv muddatini bir oygacha muddatga uzaytirish belgilab qo'yilgan.

Mazkur muddat masalasida yuzaga kelgan **kamchiliklarga** to'xtaladigan bo'lsak, eng avvalo, 2019-yilda butun jahon bo'ylab tarqalgan COVID-19 koronavirusi natijasida O'zbekiston Respublikasida ham 2020-yil mart oyida e'lon qilingan karantin davridagi tergovga qadar tekshiruv natijalarini misol sifatida ko'rsatish lozim. O'sha davrda fuqarolarning ko'chada erkin harakatlanishi, fuqarolarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ma'muriy binolariga chaqirish cheklangan vaziyatda, turgan gapki, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tushuntirish olinishi lozim bo'lgan shaxslarni belgilangan 10 kunlik muddatda kelishini ta'minlay olmaganlik holati ko'plab uchradi.

Bunday holatda esa yuqorida sanab o'tilgan mansabdor shaxslar tergovga qadar tekshiruv muddatini bir oygacha uzaytirish uchun JPKning 329-moddasi 3-qismidagi to'rtta holatdan biriga murojaat qilishi lozim bo'ldi. Vaholangki, mazkur normada butun mamlakat bo'ylab e'lon qilingan karantin chora-tadbirlari natijasida shaxs kela olmasligi yoki kelish muddati cho'zilib ketishi mumkinligi aniq qilib aks ettirilmagan edi. Natijada esa mansabdor shaxs, aslida mantiqan va qonunan noto'g'ri bo'lsa-da, JPKning 329-moddasi 3-qismi 2-bandidagi "olis joylarda bo'lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo'lishdan bo'yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar olish lozim bo'lgan hollarda" va 3-bandidagi "yangi holatlar aniqlanib, ularni tekshirmasdan turib qonuniy qaror qabul qilishning imkoni bo'lmasa" degan vajlarni ko'rsatgan holda muddatni uzaytirish to'g'risidagi qarorni qabul qilishga majbur bo'ldi.

Lekin ko'rinib turibdiki, na shaxs uzoqdaligi, na ushbu shaxs kelishdan bo'yin tovlaganligi, na yangi holat aniqlanganligi muddat uzayishiga sabab bo'lgan emas.

Mazkur holatdan kelib chiqib beradigan **tavsiyamiz** shuki, tergovga qadar tekshiruv muddatini uzaytirish mumkinligi haqidagi norma hisoblanmish O'zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasi 3-qismini yuqoridagi muammodan kelib chiqib takomillashtirish lozim.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // eski tahrir // 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // yangi tahrir // 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi // 1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // 1994-yil 22-sentabr kuni qabul qilingan
5. “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonun // 2017 yil 6 sentabr // O‘RQ-442